

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SOMATIK FRAZELOGIK BIRLIKLARNING TARJIMA MUQOBILLIGI

*Abdiyev S.A.*<sup>1</sup>

### *Annotatsiya:*

Bir birga yaqin yoki qardosh bo'lmagan tillardagi frazeologizmlarni taqqoslashda "muqobillik" tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. "Muqobillik" atamasi ikki yoki undan ortiq tillar o'rtasidagi taqqoslash munosabatlarida muhim mezonlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Umumiy jihatdan olib qaralganda, muqobillik turli tillarga tegishli shakl yoki zanjir bo'lib, ularning kontrastiv til tizimida o'xshash ifodalarning mavjudligidir.

*Kalit so'zlar:* muqobillik, somatik frazeologik birliklar, kompensatsiya usuli, idiomalar, ichki omil, tashqi omil.

---

Ingliz va o'zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklar muqobilligiga bag'ishlangan ushbu maqolamizda. Ingliz va o'zbek tillaridagi somatik frazeologik birlikla bir-biri bilan aniq voqelik yoki mavhum tuzilmalar majmui sifatida taqqoslanishi mumkin. Bunda birinchi jarayon nutq darajalariga tegishli bo'lib tarjimashunoslikda muhim ahamiyatga ega .

Qiyosiy frazeografiyadagi so'nggi izlanishlarga asoslanib, ingliz va o'zbek tillaridagi somatik frazeologik birliklarning leksik, struktur-semantik va struktur-sintaktik jihatdan o'zaro mosligini mutlaq muqobillik, qisman muqobillik, nolga teng muqobillik darajalariga ko'ra tasniflashi mumkin: [7, 484]

Tarkibida somatik komponentli frazeologik birliklarning o'rganinsh hamda ularni tarjima qilish muammosi kam o'rganilgan sohalar sirasiga kiradi. Bu borada frazeologizmlar tarjimasidagi muammolar doirasini jahon tilshunosligida F.Vakk, A.D.Reyxshteyn, G.Kempke, P.Braun, D.Kralman, J.Veng Z.Klimaszveska hamda o'zbek tilshunos olimlari Sh. Safarov, G'Mirsanov, G'.Salomov A. Yaxshiyev, M.Gadoyevalarning ishlarini e'tirof etish mumkin.

F.Gakk ikki til doirasida somatik komponentli frazeologik birliklarning to'liq muqobil variantlari mavjud bo'lmaganda yuzaga keladigan tarjima muammolariga to'xtalib o'tadi. Uning fikriga ko'ra, tarjima jarayonida frazeologik birliklar qatnashmagan ifodani ham frazeologizm sifatida tarjima qilish mumkin. Bunday matnlarda tarjimon har ikki matnda ham frazeologizmlar qo'llanilishini muvozanatlash uchun kompensatsiya (o'rnini to'ldirish) usulidan foydalanadi [2;57].

Biron bir tilda somatik komponentli iboralarni tarjima qila olish yoki tarjima qila olmaslik mezonlari frazeologik ifodalarni erkin birikmalardan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlar sirasiga kiradi. Bu mezon shundan kelib chiqadiki, somatik komponentli frazeologik birliklarni tarjima qilishda qiyinchiliklarga duch kelamiz. Ammo erkin birikmalarni esa bevosita boshqa tillarga tarjima qilish mumkin. Ko'plab somatik komponentli frazeologik birliklarni so'zma-so'z tarjima qilish imkoni mavjud emas [6, 47].

O'zbek tarjimashunosligi asoschilaridan biri G'.Salomov o'zining "Tarjima nazariyasi asoslari" nomli asarida frazeologik birliklarning tarjimasiga to'xtalib o'tadi. Uning talqiniga ko'ra, keng ma'noda frazeologizmlarni tarjima qilganda har qanday hollarda ham ularning obrazli, tayanch asoslari aynan muvofiq keladigan variantlar bilangina o'girish ma'noning o'zgarishiga, ma'noviy siljish hodisasi sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, bunday birikmalarni muqarrar ravishda asar tarjima qilinayotgan tildagi boshqa uzoq muqobil variantlar bilan almashtirishga ortiqcha ruju qilish ham uslubni siyqalashtirishga, tarjima tilining leksik-frazeologik va obrazli-uslubiy jihatdan kambag'allashishiga olib keladi. [5,38].

Q.Musaev fikriga ko'ra, frazeologik birliklarni tarjima qilish murakkab va shu bilan birga mas'uliyatli jarayondir. Frazeologik birliklarni tarjima qilishning o'ta murakkab amaliy jarayon ekanligi asosan mazkur birliklar tabiatiga - ularning leksik, semantik va qurilish jihatidan

---

<sup>1</sup> *Abdiyev Soxibsher Ashurovich, Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi*

murakkabligiga vobastadir. Frazeologizmlar milliy xususiyatga egaligi, tarjimonlar oldiga qator amaliy qiyinchiliklarni ko'ndalang qilib qo'yadi [4,183].

Turli manbalarda idiomalar tarjimasida ko'plab qiyinchiliklar mavjudligi yetarli darajada talqin qilingan. Frazeologizmlarni tarjima qilish haqiqatdan ham murakkab jarayon. Biroq buning sababi frazeologik birliklarning, odatda, an'anaviy milliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini, noyob obrazlarini yoki xalq donishmandligini o'z ichiga olganida emas, balki ko'plab idiomalarning o'ta murakkab mazmun strukturasi egaligi va natijada ikkinchi tilda uning butunlay bir xil semantik tuzilishga ega muqobil variantini topish imkoni yo'qligidir.[3,127]

Somatik komponentli frazeologizmlarning tarjima imkoniyatiga e'tibor qaratar ekanmiz, ularning bir tildan boshqa bir tilga asl hamda ko'chma ma'no jihatdan tarjima qilishdagi o'ziga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz. Tarjimada quyida ikki muhim omil e'tiborga olinishi lozim:

1) Ichki omil. Ichki omillar tildagi idiomalarning tuzilishi bilan bog'liq. Frazeologizmlarga ta'rif berishda idiomalarni xilma-xil so'zlarning tasodifiy yig'indisi sifatida namoyon qiladigan sintaktik, semantik hamda pragmatik xususiyatlari asosiy mezon sifatida olinadi. Idiomatizm qayta nomlashning boshlanishi sifatida talqin qilinadi;

2) Tashqi omil. Tashqi omil tillararo o'xshashlik yoki farqlarni izlashni o'z ichiga oladi. Darhaqiqat, bunda umumiy yoki turli xil an'analar hamda qadriyatlar, shuningdek, madaniy va iqtisodiy munosabatlarga ega bo'lgan geografik hududlar ham inobatga olinishi lozim. [1,142]

Xulosa qilish mumkinki, somatik komponentli frazeologik birliklarlarni tarjima qilish murakkab jarayon bo'lib, asl va ko'chma ma'no jihatdan tarjima qilishdagi o'ziga xoslik hamda bu jarayonga ta'sir etuvchi ichki va tashqi lisoniy omillar xisobga olinishi zarur. Ingliz va o'zbek tillarida to'liq mos keladigan, boshqa somatik komponentli frazeologik birliklarlar bilan almashtirish orqali tarjima qilish mumkin bo'lgan, lekin tarjima qilinayotgan iboraga to'la mos kelmaydigan, qisqartirish yoki to'ldirish orqali tarjima qilinadigan somatik komponentli frazeologik birliklarlarni aniqlash zarurligiga guvoh bo'lamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- [1]. Abdurahmanova S. *Processing of English idioms with body part components by native speakers of Turkish learning English with intermediate level of proficiency*. Istanbul, 2012, p.142 .
- [2]. Gakk F. *On somatic phraseology in the modern Estonian language. Abstract of the thesis. dis. Cand. philol. sciences. Tartu, 1964. - p. 57.*
- [3]. Ismatullayeva, N. R. *Expression of somatic physiognomistic lacunas in chinese and uzbek languages. In Наука и инновации в XXI веке: актуальные вопросы, открытия и достижения. 2020.p.127.*
- [4]. Musaev Q. *Frazeologizmlarning tarjima imkoniyati - Toshkent, 1998.- p. 183*
- [5]. Salomov G'. *Tarjima nazariyasi asoslari 1992. - Toshkent, p. 38.*
- [6]. Voroshilova V.O. *Somatisms in English and Russian paremiological pictures of the world. Final qualifying work. Ekaterinburg, 2016. - p. 47*
- [7]. Yaxshiyev A.A. *The Contextual – Explicit Possibilities of Variation of the Phraseological Unit (Phe) in National Speech. Journal of Positive School Psychology. 2022, Vol. 6, No 9, P. 484.*
- [8]. Boltakulova, G. F. (2015). *Means of Expressing and Analyzing Adverbial Modifier of Time in the Sentence Structure in English and Russian. In Development of the Spoken and Written Language at the Current Stage of the Intensive Information Turnover (pp. 11-12).*
- [9]. Mardonova, S. (2024). *Qadimgi Ingliz Tilidagi "Feorrian, (Ge)Witan" Yo'Nalish Harakati Fe'llari Semantik Taraqqiyoti. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 400-403. <https://doi.org/10.2024/yr2r9r77>*
- [10]. Nosirova M. F., Farhodova S. U. Q. *The study of sociolinguistics and the implication of social factors //Science and Education. –2022. –T. 3. –No. 5. –C. 2017-2020.*
- [11]. *The Significance Of Communicative Competence In The Prosperity Of Pedagogical Science. RS Sharifovna The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development, 2 (9), 51-54.*
- [12]. Yusupov N. O., Yusupova N. O., Eshmamatov M. M. *Games in teaching foreign languages and methods of conducting at the initial stage in secondary school //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. Special Issue 2. – C. 185-189.*
- [13]. Alisherovna M. N. *Semantic and structural differences of paremias, maxims and sayings //Journal of Critical Reviews. – 2020. – T. 7. – №. 5. – C. 680-681.*

[14]. Болтакулова, Г. Ф. (2016). Синтаксическая дистрибуция компонентов, выражающих темпоральность в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (9 (391)), 44-50.

[15]. Mardonova, S. (2022). *Sitora Semantic Development Of Directional Verbs In Old English: Semantic Development Of Directional Verbs In Old English*. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(4). извлечено от <https://fl.jdpu.uz/index.php/fl/article/view/7063>;

[16]. Umidovna F. S., Solijonovna U. O. The structure of Russian and Uzbek intonation and its peculiarities in pronunciation //Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 84-87.

[17]. Yarqulova, D. M. (2023). *Ingliz Tili Va O'zbek Tillarida So'z Birikmalarining Hosil Bo'lishidagi O'xshash Va Farqli Jihatlar*. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 3, No. 1, pp. 101-104)*.

[18]. Ochilovna Y. N. *Semantic And Stylistic Features Of Gradual Antonyms In English And Uzbek Languages* //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – Т. 4. – №. 5. – С. 401-405.

[19]. Iskandarovich, A. S. (2021). *Characteristics of english absolute constructions as compilers of semantic sentence structure*. Евразийский научный журнал, (3), 24-26.

[20]. Ruzimuratova, N. (2025). *O'zbek Va Ingliz Tillarida "Mehnatsevarlik" Konseptining Leksik Va Semantik Birliklar Orqali Ifoda Etilishi*. Education And Research In The Era Of Digital Transformation, 1(1), 605-609.

[21]. Бегматов, К. (2021). Иккинчи чет тили ўқитувчисининг касбий-педагогик сифатлари ва функциялари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (79)), 84-87.